

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IMKONIYATI
CHEKLANGAN O‘QUVCHILAR UCHUN YARATILGAN SHART-
SHAROITLAR**

Ijtimoiy gumanitar fanlar

O‘zbekiston tarixi

Valiyev Ibrohimxon Ismoilxon o‘g‘li

+99893-938-25-40

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun yaratilgan shart sharoitlar yoritilgan. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun maktab-internatlar tashkil etilgani va ular uchun Maktabgacha va Maktab ta‘limi vazirligi tomonidan alohida o‘quv dasturi qabul qilinganligi shuningdek inkuliziv ta‘lim tamoyillari yoritib berilgan. Shuningdek imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yanada oshirish bayon qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Imkoniyati cheklangan, o‘quvchi, maktab-internat, O‘quv dastur, inkuliziv ta‘lim, qaror, baryl, elektron kitob, audio darslik, quloqchin,*

Dunyodagi rivojlangan davlatlar qatorida O‘zbekiston Respublikasida ham imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ta‘lim olishlari uchun imkoniyat va shart- sharoitlar yaratilgan. Olimlarni hisob kitobiga ko‘ra dunyoda nogironlar soni 1 mlrdan oshiq bo‘lib 15 %ni tashkil qilmoqda. O‘zbekistonda nogironlar soni 760 mingga yaqin bo‘lib, ularning 120 mingga yaqini 18 yosh va undan kichik yoshdagi nogiron bolalardir. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni to‘la-to‘kis bilim olishlari va jamiyatga, sog‘lom o‘quvchilardan qolishmaydigon bilim va ko‘nikmalarga erishishlari uchun Respublika bo‘ylab maxsus maktab-internatlar tashkil etilgan. Ushbu maktab-internatlarda imkoniyati cheklangan va alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar uchun munosib shart sharoitlar yaratilgan. Misol uchun ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun 17 ta maktab-internat faoliyat olib bormoqda. Ushbu maktab-internatlar o‘zining

yotoqxonasi mavjud bo'lib u yerda o'quvchilar yashab ta'lim olmoqda. Maktab-internatlarning tasdiqlangan ustav-nizomiga ko'ra olis masofadan kelib tahsil oladigon o'quvchilar haftaning shanba va yakshanba kunlari ham muassasa yotoqxonasida qolishlari uchun shart sharoitlar yaratilgan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan maxsus maktab-internatlar uchun alohida o'quv-reja ishlab chiqilgan bo'lib bu o'quv setkasi umumta'lim maktablari o'quv setkasidan farq qiladi. Bu o'quv rejani tuzish jarayonida o'quvchilarni jismoniy va aqliy qobilyatlari inobatga olingan. Misol tariqasida umumta'lim maktablarida mavjud bo'lmagan logopedik mashg'ulotlar yoki IMY (ijtimoiy maishiy yo'nalish), Korreksion mashg'ulotlarni aytish mumkin. Resoublikamizda maxsus-maktab internatlar faoliyatini tartibga soladigon qator qonun va qarorlar mavjud. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatadigon maktab internatlar kelib chiqishiga ko'ra ushbu guruhlarga bo'linadi. I-kar (eshitmaydigon)bolalar uchun, II-zaif eshitadigon va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun, III-ko'zi ojiz(ko'r) bolalar uchun "Nurli Maskan"ixtisoslashtirilgan maktab-internat, IV-zaif ko'radigon va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun, V-nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun, VI-tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun,VII-psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun, VIII-aqli zaif bolalar uchun maktab-internatlar tashkil etilgan. Ushbu ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun yaxshi sharoitlar yaratish maqsadida har bir sinfda 8-10-12 tagacha o'quvchilar ta'lim tarbiya olishadi. Sinflarning o'quvchilar bilan to'ldirilishi minimal va maksimal soni quyidagicha Kar bolalar uchun 8-10 ta, Zaif eshituvchi va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun 10-12 ta, Ko'r bolalar uchun 8-10 ta, Zaif ko'ruvchi va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun 10-12 ta, Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 10-12, Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun 10-12 tani tashkil etadi. O'quvchilarni maktab-internatlarga jalb etish O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish va ularning ehtiyojlarini inobatga olishga qaratilgan. Ta'lim muassasalarida inkuliziv ta'limni joriy etish, barcha bolalarning birga o'qish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun, o'qituvchilarni

tayyorlash, maxsus dasturlar ishlab chiqish va ta'lim muassasalarini moslashtirish zarur. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlanadi va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun o'qituvchilar, ularning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ta'lim muassasalarining moslashtirilishi, ularning ta'lim olish jarayonini osonlashtiradi. O'zbekistonda ko'plab ta'lim muassasalari, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan infratuzilma bilan ta'minlangan. Bu, o'quvchilarning o'z-o'zini ifoda etishlari, o'qituvchilar bilan samarali muloqot qilishlari va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari uchun zarurdir. O'qituvchilarni inkulziv ta'lim metodologiyalari bo'yicha tayyorlash, imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda o'qituvchilar uchun maxsus treninglar va seminarlar o'tkazilmoqda. Bu treninglar, o'qituvchilarga bolalarning ehtiyojlarini tushunishga, ularni qo'llab-quvvatlashga va ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishga yordam beradi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, jamiyatda inkulziv ta'limni targ'ib qilishga ham bog'liq. O'zbekistonda bu borada turli tadbirlar, kampaniyalar va seminarlar o'tkazilmoqda. Jamiyatda inkulziv ta'limning ahamiyatini oshirish, imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Biroq, O'zbekistonda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hali ham to'liq ideal emas. O'qituvchilarni tayyorlash, resurslarning yetishmasligi, ta'lim muassasalarining moslashtirilishi kabi muammolar mavjud. Ba'zi ta'lim muassasalari, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun zarur infratuzilma va jihozlarga ega emas. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yaxshilash uchun bir qator istiqbollarni mavjud. Ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish, xalqaro tajribalarni o'rganish va jamiyatda inkulziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish orqali bu sohani yanada rivojlantirish mumkin. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan

o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim tizimining inkulizivligini oshirish va bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Biroq, bu jarayon hali ham ko'plab muammolarni o'z ichiga oladi. O'qituvchilarni tayyorlash, ta'lim muassasalarini moslashtirish va jamiyatda inkuliziv ta'limni targ'ib qilish orqali, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish mumkin. Bu esa, kelajakda jamiyatda tenglikni va ijtimoiy adolatni ta'minlashga yordam beradi. Quyidagilar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (keyingi o'rinlarda — vazirlik) tomonidan tasdiqlangan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari talablari asosida bilim olishni ta'minlash, shaxsga va ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning eng maqbul rivojlanishini ta'minlash maqsadida tabaqalashtirilgan va individual ta'limni tashkil etish, shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayotda va mehnat faoliyatida xulq-atvorning eng maqbul modelini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalash, o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim sharoitida o'qishga tayyorlash, o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarining shakllanishi uchun zarur korreksion (tuzatuvchi) — rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning psixik funksiyalari va salomatligi tizimli tarzda kuzatilishini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida”gi PF-157-sonli farmoni.
- 2.Xo'janova M. “O'zbekistonda bolalar uyining shakllanishi va faoliyati”. – Toshkent-2023.
- 3.www.Wikipedia.uz internet sayti.
- 4.www.Lex.uz internet sayti.